

## EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O‘RNI

**Quldoshev Asliddin Tursunovich**

*Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti dotsenti*

**Hamzayeva Ruxshona**

*Samarqand Zarmed universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada, ekologik madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalari hamda ekologik tarbiyaning aholi ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirishdagi imkoniyatlari va yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik globallashuv, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik bilim, ekologik targ‘ibot, ekologik muhit, ekologik madaniyat.

Ekologik siyosat ekologik globallashuv tendensiyalarining zamonaviy sotsiumga ta’sirini kamaytirishi, jamiyat ekologik xavfsizligini ta’minlashi uchun ekologik muhitni muhofaza qilish tadbirlari shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish choralari bilan to‘ldirilmog‘i shart. Binobarin, zamonaviy davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekologik tarbiya bilan bog‘liq bo‘lmog‘i lozim. Chunki aynan ekologik tarbiya aholi ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirish imkonini yaratadi.

Ekologik tarbiya tarbiyaning yil sayin tobora dolzarblashib borayotgan shakllaridan biridir. U tarbiyaning boshqa shakllari bilan uyg‘un tarzda takomil topa boradi. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurroq anglab olish uchun uni tarbiya tizimi kontekstida, uning turli shakllari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilmoq kerak. Ekologik tarbiyaning tarbiya tizimidan ayri holda talqin etilishi mazkur fenomen haqida ilmiy tasavvurlar hosil qilishga xalal beradi.

Tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. U shaxs qadriyat va manfaatlarini jamiyat qadriyat hamda manfaatlariga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Tarbiya obyektini hamisha shaxs yoxud muayyan guruh bilan bog‘liq. Biroq

tarbiyaning subyekti turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Masalan, tarbiya alohida shaxs, biror bir institut, guruh, davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Har qanday holatda ham tarbiyaviy ta’sir o‘zining maqsadga muvofiqligi va tizimliliigi bilan ajralib turadi.

Tarbiya masalalari bilan shug‘ullangan barcha mutaxassislar uning turli shakllari mavjudligini qayd qiladilar. Biroq odatda bunda tarbiyaning o‘z mazmuniga ko‘ra turli shakllarga bo‘linishi nazarda tutiladi, xolos. Aytaylik, tarbiya mazmunan aqliy, mehnat, jismoniy, ahloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, iqtisodiy va shu kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda, unutmashlik zarurki, tarbiya nafaqat o‘z mazmuniga ko‘ra, balki institutsional belgilari, tamoyillariga ko‘ra ham turli shakllarga ega. Masalan, tarbiya insonning umri davomida turli ijtimoiy institutlar - oila, mahalla, ta’lim maskani, mehnat jamoasi, jamoatchilik tashkilotlari tomonidan olib boriladi. Bundan tashqari, inson tarbiyasi turli tamoyillarga bo‘ysundirilishi mumkin. Bu borada erkin, avtoritar, demokratik tarbiya haqida gapirish o‘rinli.

Tarbiya masalalari odatda pedagoglar tomonidan puxta o‘rganiladi. Biroq bunda masalaning bir jihati e’tibordan chetda qolib ketadi. Pedagoglar o‘z faoliyatlari ta’lim muassasalari bilan bog‘liq bo‘lgani bois ko‘proq bolalar, o‘smirlar va yoshlar tarbiyasi xususida bosh qotiradilar. Vaholanki, masalaga ijtimoiy falsafa pozitsiyasidan yondashsak, tarbiya insonning butun umri mobaynida davom etadigan jarayondir. Shu boisdan tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilishi qay darajada muhim bo‘lsa, uning ijtimoiy-falsafiy talqini ham shu qadar ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirgan nazariy tezislrimiz ekologik tarbiyaning mazmuni va mohiyati, maqsadi va vazifalari, shakllari va uslublari, tamoyillari va vositalarini mufassal aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya o‘z mazmuniga ko‘ra tarbiyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan maqsadga muvofiq tarbiyaviy jarayondir. U turli subyektlar tomonidan olib borilishi mumkin. Masalan, oilada, u yoki bu institutda, jamoada ham ekologik tarbiyaning muayyan shakllari amalga oshiriladi. Biroq bu borada davlat tomonidan ekologik siyosat doirasida maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilgan ekologik tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir.

Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirishdan iborat. Uning yo‘nalishlari va vazifalari ana shu maqsaddan kelib chiqadi, uslublari va usullari esa unga muvofiq ravishda tanlanadi. Jumladan, maqsadga

mos tarzda, ekologik tarbiya ikki asosiy yo‘nalishda (shaxs ekologik ongini yukasaltirish; shaxs ekologik faoliyatini takomillashtirish) amalga oshiriladi. Ekologik tarbiyaning vazifalari turkumiga esa quyidagilar kiradi:

1. Ekologik ong negizida atrof-muhitga mus’uliyatli yondashuvni shakllantirish.
2. Zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llariga doir bilimlar tizimini shakllantirish.
3. O‘z hududidagi atrof-muhitni o‘rganish, holatini baholash va yaxshilashga doir intellektual va amaliy malakalar tizimini rivojlantirish; atrof-muhitni muhofaza qilishga doir faol faoliyatga intilishni rivojlantirish” [1].

Ekologik tarbiya turli shakl va uslubda amalga oshiriladi. Tarbiya obyektining xususiyatlari yangilangani sayin bu shakl va uslublar ham o‘zgara boradi. Masalan, inson umrining dastlabki bosqichlarida qo‘llanilgan ekologik tarbiya uslub va shakllaridan uning yetuklik davrida foydalanib bo‘lmaydi, albatta. Yetuk yoshdagi kishining ekologik ongi va faoliyatiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun mutlaqo boshqa turkumdagi shakl va uslublarga murojaat etish zarur bo‘ladi. Shuning uchun ekologik tarbiya shakl va uslublarini tasniflash birmuncha murakkabroq. Bizning fikrimizcha, bu shakl va uslublarni ekologik tarbiyaning maqsadi va yo‘nalishlariga mutanosib ravishda quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

a) shaxsning ekologik ongiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan shakl va uslublar (masalan, tushuntirish, ishontirish, mashq qilish, ibrat va sh.k.);

1) b) shaxsning maqbul ekologik faoliyatini shakllantirishga mo‘ljallangan shakl va uslublar (masalan, o‘zini tahlil qilishga undash, anglab olishga undash, ekskursiya va sh.k.);

2) v) shaxsning maqbul ekologik ongi va faoliyatini rag‘batlantirish shakl va uslublari;

3) g) shaxsning nomaqbul ekologik ongi va faoliyatini jazolash shakl va uslublari.

4) Ekologik tarbiya vositalari ham o‘zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Shaxs ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirishda adabiyot va san’at, fan va din, ommaviy axborot vositalari va shu kabi vositalar jiddiy rol o‘ynaydi. E’tiborli jihati shundaki, ekologik tarbiyaning bir bosqichida bu vositalarning ayrimlari ustuvor ahamiyat kasb qilishi, boshqalari esa ikkilamchi rol o‘ynashi mumkin. Vaziyat o‘zgargach, bu iyerarxiya ham yangicha tus oladi. Masalan, ta’lim maskanlarida bolalar ekologik ongi va faoliyatiga ko‘proq fan, adabiyot va san’at vositasida ta’sir

ko‘rsatiladi. Yetuk yoshdagi kishilar ekologik ongi va faoliyatiga esa ommaviy axborot vositalarining ta’siri ustuvor. Boshqa vositalar ikkilamchi rol o‘ynaydi.

5) Ekologik tarbiya muayyan samaraga olib kelishi uchun aniq tamoyillarga bo‘ysundirilmog‘i zarur. Mavzuning ushbu jihatini maxsus tadqiq qilgan mutaxassislar quyidagi tamoyillarga e’tiborni tortadilar:

- 6) tarbiyaviy jarayonning maqsadga muvofiqligi va g‘oyaviyligi;
- 7) umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligi;
- 8) shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligi;
- 9) tarbiyaning hayot, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining bugungi bosqichi bilan bog‘liqligi;
- 10) jamoada shaxs tarbiyasi;
- 11) tarbiyaning tabiatga muvofiqligi [1].

Ushbu mulohazalarga qo‘shimcha qilib ta’kidlash zarurki, ekologik tarbiya uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo‘lishi, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va innovatsion uslublarga tayanishi darkor. Shuningdek, ekologik tarbiya zamon talablariga mos ravishda yo‘lga qo‘yilmog‘i zarur, aks holda u o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga xizmat qilmay qo‘yadi.

Ekologik tarbiyani tarbiyaning boshqa shakllaridan ayri ravishda tashkil etib bo‘lmaydi. U barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan umumiy sa’y-harakatlarning bir jhati, shakli, xolos. Ekologik tarbiya aqliy, axloqiy, iqtisodiy, vatanparvarlik va boshqa tarbiya shakllari bilan uyg‘undir. Jumladan, shaxsning aqliy salohiyati oshgani sayin uni ekologik jihatdan tarbiyalash imkoniyatlari kengaya boradi. Aksincha, shaxs ekologik tarbiyasi uning ekologik ongi va faoliyatini shakllantirish bilan cheklanmasdan, aqliy xislat va fazilatlarining ham kamol topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy tarbiya shaxsni tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishga undovchi fazilatlarini ham shakllantiradi, ekologik tarbiya esa shaxs axloqiy qiyofasining qaror topishi jarayonida ham iz qoldiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ekologik globallashuv tendensiyalarining shaxs ongi va faoliyatiga salbiy ta’siri kuchayib borayotgan bugungi kunda ekologik tarbiyani davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlarida ekologik tarbiya masalalariga ustuvor ahamiyat berilayotgani ham shundan. O‘zbekistonda ekologik tarbiya samaradorligini oshirish, uning zamonaviy tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarga diqqatni jamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi: a) ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash; b) ekologik tarbiya shakllari uyg‘unligini ta’minlash; v) ekologik tarbiya

vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyatiga.

**ADABIYOTLAR:**

1. Зарипова М.Формы и методы экологического воспитания учащихся// Молодой ученый, 2014, №1. – С.524.
2. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.
3. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."
4. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje*. 44 (2024): 235-242.
- 5 Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.